



BUXORO  
DAVLAT  
UNIVERSITETI

1930



# “ZAMONAVIY PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR TENDENSIYALARI”

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI  
TO'PLAMI

2024 - yil, 20 - aprel

[www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)

amalga oshirish uchun tadqiqot metodikalari tanlandi. Yana shuni ta'kidlash joizki, ba'zan har bir o'smir stressli vaziyatlarda o'z imkoniyatlariga adekvat baho bera olishga ma'lum ma'noda qiyinchilikka uchrashi mumkin. Bizningcha, bunday qiyinchilik zamirida stressli vaziyatlar haqida yetarli tasavvurga ega emasligi bilan izohlash mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Akramova.G.S.- "Yosh psixologiyasi" – 2015 y.
2. Karimova .V.-“Oila psixologiyasi”-Toshkent 2017-yil.
3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. Universitet va pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – T.: O'qituvchi, 2014.– 98 b.
4. Muxtorov E.M.-“Oila psixologiyasi”-Toshkent 2010-yil.
5. Petrovskiy.A.V-“Umumiy psixologiya”–Toshkent -2012-yil.
6. Qodirova A.T. O'smirlarda oilaviy nizolar to‘g‘risida ijtimoiy tasavvurlarining shakllanishi.-Psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: 2017.

### **CHEY ELLIK TALABALARING O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIGA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MOSLASHUVINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINI O'RGANISH METODLARNI TANLASH ASOSLARI**

*Nazarova Manzura Mustafa qizi.*

*Buxoro davlat universiteti*

*Psixologiya va sotsiologiya kafedrasи tayanch doktoranti*

Zamonaviy psixologiya fanida shaxsiyatni doimiy ravishda o'zgarib turadigan narsalarga moslashtirish, shaxsnинг ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasi hamda ushbu hodisani belgilovchi omillar muammosiga katta e'tibor berib kelgingan. I.A.Mnatsakanyanning fikricha, madaniyatlararo ijtimoiy-psixologik moslashuv nisbatan yangi tushuncha. Shu bilan birga, insonning yangi madaniy yoki etnik muhit ta'riflarga asoslangan ijtimoiy-psixologik moslashuv muammolarni o'rghanish ko'plab masalalarga yechim bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shu sababli zamonaviy adabiyotlarda madaniyatlararo moslashuv masalasiga ijtimoiy-psixologik moslashuvning bir turi sifatida qaraladi. Madaniyatlararo moslashuvning sinonimlari sifatida adabiyotda ko'pincha "etnik-madaniy", "ijtimoiy-madaniy", "madaniyatlararo" va boshqalar atamalar ishlataladi. Biroq, bu atamalar garchi bitta semantik maydonga tegishli bo'lsa ham, o'rghanilayotgan hodisaning mohiyatini o'zida to'liq aks ettirilmaydi T.G.Stefanenkoning fikricha, madaniyatlararo ijtimoiy-psixologik moslashuv deganda quyidagilarni tushunish kerak:

- shaxsnинг yangi madaniyatga kirish jarayonini;
- uning me'yordi, qadriyatlari, xulq-atvor namunalarini bosqichma-bosqich o'zlashtirish hodisasini.

Shu bilan birga, haqiqiy moslashuv o'z madaniyati boyligini yo'qotmasdan ijtimoiy va psixologik integratsiyaga erishishni o'z ichiga oladi. Madaniyatlararo ijtimoiy-psixologik moslashuv murakkab, ko'p tomonlama jarayondir. Shaxs yangi ijtimoiy-madaniy muhitga kirishida uning me'yordi, qadriyatlari, xulq-atvor namunalarini o'zlashtirish, natijada ruhiy salomatlik, hissiy qoniqish, shaxsiy va madaniy o'ziga xoslik hissi, yangi guruuning ijtimoiy-madaniy hayotida ishtiroy etish, turli madaniyat vakillari bilan samarali hamkorlik kabi holatlar

bilan yuzma-yuz bo‘lishiga to‘g‘ri keladi. E.D.Maksimchuk madaniyatlararo moslashish muammosining xarakteristikasi, asosan, ijtimoiy psixologiya va etnopsixologiya sohasida o‘rganilishini ta’kidlagan. Shuningdek, u xorijlik talabalarning madaniyatlararo moslashuvining asosiy ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni aniqlashga, ushu xususiyatlarni o‘rganish usullarini sinab ko‘rishga qaratilgan tadqiqotlar prinsiplarini tavsiflab o‘tadi. E.D.Maksimchuk xorijlik talabalarning o‘zgaruvchan kontaktlar sharoitida madaniyatlararo moslashuvining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni o‘rganish uchun avvalo etnik o‘ziga xoslik tarkibidagi o‘zgarishlarni o‘rganish talab qilinadi degan fikrni ilgari suradi. Turli xil ta’sirlar ostida inson qadriyatları, yangi madaniyatning elementlari, insonning boshqa madaniyatlar vakillariga nisbatan bag‘rikenglik munosabati imkoniyatlari, ko‘p tilli muhit sharoitidagi aloqalar, xalqaro rivojlanishning psixologik jihatlari kabi savollar moslashuv jarayonlarini o‘rganishda xalqaro almashinuv dasturlari doirasida mamlakatimiz ta’lim muassasalariga kelgan xorijiy talabalar uchun dolzarb bo‘lib qolmoqda. Chet ellik talabalar, nafaqat, universitetda o‘qish sharoitlariga, yotoqxonadagi hayotga moslashishlari kerak, balki, chet elda yashash, boshqa turmush tarziga ko‘nikish, boshqa tilda muloqot qilish zarurati, qarindoshlarning yo‘qligi, yangi ob-havo sharoiti va shu kabi boshqa omillar ular uchun ko‘pincha ekstremal bo‘lib chiqadi. L.Uard ko‘rib chiqilayotgan muammoning bir qismi sifatida "chet ellik talaba sindromi" atamasidan foydalanish taklifini berdi. Ushbu sindrom passiv va yopiq aloqa uslubi, beparvo ko‘rinishga urinish singari jismoniy holatga oid keng shikoyatlar bilan tavsiflandi. Natijada, L.Uard chet ellik talabalarda depressiv va "madaniy shok" borligi haqida yozadi. Xalqaro talabalarni moslashtirish muammolari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar tahlili 2000 yildan 2013 yilgacha keng muhokama etilgan. Xorijlik talabalar duch keladigan eng asosiy qiyinchiliklar ko‘pincha ularning milliy va diniy xususiyatlari bilan bog‘liq. N.A.Jerlitsina tomonidan o‘tkazilgan so‘rovnoma shuni ko‘rsatdiki, xalqaro talabalarning ijtimoiy-psixologik moslashuv muammolari eng keng tarqalgan. O‘rganishlar natijasida respondentlarning 10 foizi begona mamlakatda deyarli hech qanday jiddiy qiyinchilikka duch kelmaganini bildirgan. M.I.Vitkovskaya va I.V.Trotsuk kabi tadqiqotchilarining ilmiy izlanishlariga ko‘ra, chet ellik talabalar uchun begona mamlakatga kelganidan so‘ng quyidagi holatlar ularni ko‘proq bezovta qiladi:

- ob-havo bilan bog‘liq holatlar (respondentlarning 37%);
- boshqa turmush tarziga (37 %);
- yotoqxonada yashash sharoitlariga (45 %);
- ehtiyojga ko‘nikish eng qiyin bo‘lgan
- boshqa tildagi aloqa (42 %);
- yaqinlarning yo‘qligi (47 %).

Universitetda o‘qishning boshqa qiyinchiliklari respondentlarning 49 foizida aniqlangan. Shunday qilib, xalqaro talabalarning ko‘pchiligidida adaptatsiya jarayonining samarali bo‘lishi kechishi uchun psixologik yordam va qo‘llab-quvvatlash kerak ekanligi ayon bo‘ldi. Nazariy tahlil natijalariga ko‘ra, chet ellik talabalar moslashuvining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari madaniy masofa, madaniy zarba, etnik identifikasiya, etnik bag‘rikenglik kabi tushunchalar bilan chambarchas bog‘liqdir.

V.G.Krysko tomonidan etnopsixologik tadqiqot tamoyillarini quyidagi prinsiplarini tavsiflaydi:

- etnik shakllanishning turli omillarini hisobga olish prinsipi
- jamiyat va uning psixologiyasi;
- tahlil prinsipi;

- milliy psixologik xususiyatlar;
- muayyan etnik guruh vakillarining boshqa xususiyatlarining namoyon bo‘lishi bilan birlikda odamlarning milliy-psixologik xususiyatlarining namoyon bo‘lishining xilmalligini hisobga olish prinsipi;
- milliy-psixologik xususiyatlarni tahlil qilishda taqqoslash prinsipi.

Chet ellik talabalar aksariyat holatlarda boshqa millat va xalqlarga ijobiy munosabatda bo‘lishadi, shuningdek, ularda madaniyatlararo hamkorlikka tayyorlik, ijtimoiy doirani kengaytirish, turli millat vakillari bilan do‘stona munosabatlar kabilarni kuzatish mumkin. J.Finni etnik o‘ziga xoslikning ikkita komponentini o‘lchashga alohida e’tibor qaratadi:

- kognitiv (bilimlarni shakllantirish, o‘z etnik guruhining xususiyatlari haqidagi g‘oyalardan xabardorlik darajasi. Ushbu guruhga mansubligini etno-farqlovchilarning interiorizatsiyasi asosidagi belgilarni kiritish mumkin);
- affektiv (guruhga mansublik hissi konnotati, uning fazilatlarini baholash, a’zolikka bo‘lgan munosabatning hissiy tomoni).

Tadqiqotchi I.A.Sholoxov ham o‘zining mualliflik so‘rovnomasini orqali xalqaro talabalardan xorijiy madaniyat muhitiga moslashish, chet ellik talabalar tomonidan boshdan kechirilgan qulaylik va erkinlik darajasini aniqlash uchun qo‘llaniladigan usullar, qabul qiluvchi mamlakatda ularga ma’qul kelgan jihatlar, tez va oson adaptatsiya hosil qilishlari uchun yordam beradigan omillar yoki qanday holatlar ularning begona muhitga ko‘nikishlarini qiyinlashtirishini o‘rganadi. So‘rovnoma quyidagi savollar mavjud:

- 1) aloqa qiyinchiliklarini aniqlash uchun chet tilini o‘rganish motivatsiyasini aniqlash;
- 2) umumiyligi subyektivni aniqlash uchun talabalarning yangi hayotga moslashishi shartlarini aniqlash;
- 3) talabalarning sodiqligini aniqlash uchun xorijiy madaniyat jamiyati va ularning ushbu jamiyatdagi obyektiv o‘rnini baholashlari.

Ushbu so‘rovnoma bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, begona mamlakatda tahsil olayotgan chet ellik talabalar atrof-muhit, iloji bo‘lsa, til muhitiga to‘liq sho‘ng‘ishni xohlaydi. Chet ellik talabalarning o‘quv jarayonidagi xatti-harakatlarini va ularning bo‘sh vaqtlanishini ko‘rib chiqish, madaniyatlararo moslashuvning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini e’tiborga olish lozim. Madaniyatlararo moslashish muammosi bo‘yicha adabiy manbalarni tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, xalqaro talabalarning madaniyatlararo psixologik moslashuvi ijtimoiy va individual xususiyatga ega bo‘lib, uning quyidagi tarkibiy qismlarini sanab o‘tish mumkin:

#### I. Ijtimoiy:

1. Yangi ijtimoiy-madaniy sharoitlarda ijtimoiy-maishiy o‘zini-o‘zi ta’minlash ko‘nikmalarining shakllanmaganligi, shuningdek, o‘z faoliyatini rejalashtirish va tashkil etish ko‘nikmalarning yetishmasligi.

2.O‘zaro hamkorlik bo‘yicha sheriklari – boshqa tilda so‘zlashadigan va boshqa etnik madaniyatlarining tashuvchilari bilan ijtimoiy masofalarning mavjudligi.

3. Madaniyatlararo kompetentsiya darajasining yetarli emasligi.
4. Keng ijtimoiy muhit bilan cheklangan aloqa.

#### II. Psixologik:

1. Kelajakdagi kasbga barqaror munosabatni shakllantirish.
2. Ayni damda istiqomat qilayotgan va tahsil olayotgan mamlakat tilini o‘rganishga bo‘lgan doimiy qiziqish.

3. Psixologik zo'riqish, noaniqlik va umidsizlik holati.
4. Etnik bag'rikenglik va etnik o'ziga xoslikning o'zaro bog'liq majmuasi.
5. Muloqotga ehtiyoj

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ta'lim sohasidagi turli mamlakatlar vakillari o'rtasidagi aloqa jarayonlarini takomillashtirishga, madaniyatlararo ijtimoiy-psixologik moslashuvni kuchaytirishga yordam beradigan turli usullarni doimiy ravishda chet elliq talabalarda qo'llash lozim. Ular uchun yangi madaniy muhitga moslashtirish jarayonida qo'llaniladigan eng samarali ijtimoiy-madaniy texnologiyalar ijodkorlik, turizm, sport, sog'liqni saqlashning turli turlariga jalb qilish orqali amalga oshirish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ширкова Н.Н. Специфика межкультурной коммуникации иностранных студентов в системе высшего образования // Современная педагогика. 2015. № 12.
2. Тихомировой Е.И. Самореализация молодежи в социуме. Достижения. Проблемы. Перспективы./ Под ред. Самара. Изд-во АсГард, 2009.
3. Parigin B.D. Социальная психология. Проблемы методологии, истории и теории". О'quv qo'llanma, M:1999 yil.
4. Pavlov I.D. "Новые направления исследований в психологии речи и психолингвистике Psixologiya jurnali. 2007yil. - 1. 2K, № 2.

### **ABDULXOLIQ G'IJDUVONIYNING XOJAGON TARIQATIDA KOMIL INSON SHAXSI TARBIYASINING TUTGAN O'RNI**

*Sadilloyev Odiljon Oripovich*

*Mirarab oliy madrasasi "Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi" 1-bosqich magistranti.*

XXI asr tabiat va jamiyatda tub o'zgarishlar, yangiliklar, islohotlar davri sifatida ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning nufuzli solnomasida buyuk o'rinn egallashi shak-shubhasiz. Chunki yer kurrasida yuz berayotgan har xil xususiyatlari vogeliklar, hodisalar, holatlar, o'zaro shunday jips aloqaga egaki, qit'alar, mamlakatlar, elatlar, etnoslar taqdiri integrativ ahamiyat kasb etib, yakka shaxs, real guruh muammosi umuminsoniy masala tariqasida namoyon bo'lmoqda. Xuddi shu bois xususiy, etnik, milliy xususiyat umumiy, umumbashariy bosqichga o'sib o'tishi, (ko'chishi) insonlar xulqi, faoliyati, muomalasi, intilishi, ezgu niyati, xohish-irodasi, iymon-e'tiqodi va komfort hissida yaqinlik, empatiya tuyg'usida birlikni vujudga keltirmoqda. Insonlar ijtimoiy kelib chiqishi, millati, egallagan lavozimidan qat'iy nazar tabiat va jamiyatga nisbatan qarashlarida umumiylilik, uyg'unlik hukm surar ekan, demakki, ijtimoiy psixologik vogeliklar bo'yicha hamdardlik, o'zaro tushunuv, baholash mezonida yaqinlik jamiki narsalarga umumbashariy qadriyatlar mohiyatiga asoslanib yondashish ro'yobga chiqmoqda. Insoniyat uchun umumiy xavf, umumiy baxt, ezgulikda hamkorlik mayjudligi tabiat bilan jamiyat ravnaqi inson omiliga bog'liq ekanligi ijtimoiy zarurat sifatida hal qiluvchi rol o'ynashiga iymonimiz komil.

Inson tabiat va jamiyatni bezatuvchi, belgilovchi, asrovchi, takomillashtiruvchi qudratli kuch sifatida ularning taqdirida hal qiluvchi vazifa bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shuning uchun inson omili, uning kamoloti hozirgi davrda muhim ahamiyat kasb etadi va bu borada ijtimoiy-

	<b>Psychological analysis of the defense mechanism of teenagers in extreme situations</b>
<b>197</b>	<b>Маткаримова Дилнавоз Гайратовна Педагогическая психологическая младших школьников</b> <b>4-SHO'BA SHAXSNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK VA KASBIY RIVOJLANISH MUAMMOLARI</b>
<b>202</b>	<b>Abira Amanovna Khuseynova Socio-psychological aspects of the family</b>
<b>204</b>	<b>Ganjiyev Feruz Furqatovich Izbullayeva Saodat Azamatovna</b> <b>Bolalarning nutqiy rivojlanishida ijtimoiy-psixologik omillar ta'siri va ularning ahamiyati</b>
<b>207</b>	<b>Norgo'zieva Dilrabo Sheraliyevna Qo'qon DPI Amaliy psixologiya kafedrasи</b> <b>O'quv faoliyati samaradorligi dinamikasiga ta'sir etuvchi nizolarning psixologik fenomenlari</b>
<b>210</b>	<b>Abdullahayeva Barno Sayfutdinovna</b> <b>Uyushmagan yoshlarning psixologik qiyofasi va shaxs yo'nalganligi</b>
<b>214</b>	<b>Салихов Шохрух Мансурович</b> <b>Педагогико-психологические особенности формирования профессиональных навыков будущих учителей физической культуры</b>
<b>218</b>	<b>Axmedova Zarrina Jamilovna Ruzimurodova Jasmina Ilyos qizi</b> <b>Kichik mакtab yoshidagi o'quvchilarni moslashuvining psixologik ahamiyati</b>
<b>221</b>	<b>Akbarova Maftuna Ekinjon qizi</b> <b>O'smirlarda psixologik barqarorlikni taminlashning asosiy omillari</b>
<b>224</b>	<b>Nazarova Manzura Mustafa qizi.</b> <b>Chet elliq talabalarning O'zbekiston ta'lim tizimiga ijtimoiy-psixologik moslashuvining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish metodlarni tanlash asoslari</b>
<b>227</b>	<b>Sadilloyev Odiljon Oripovich</b> <b>Abduxoliq G'ijduvoniyning xojagon tariqatida komil inson shaxsi tarbiyasining tutgan o'rni</b>
<b>230</b>	<b>Xamroyev Suhrob Raxmatovich</b> <b>O`qituvchi-talabalar diadasida muloqot qiyinchiligining psixologik omillari</b>
<b>234</b>	<b>Myxamedova Dilbar Gafurdjanovna Sayitova Nargiza Xikmatillo qizi</b> <b>Bolalarda kognitiv bilish jarayoning rivojlanish xususiyatlari</b>
<b>237</b>	<b>Mussayeva Muxlisa G'aybullayevna</b> <b>Exploring the influence of the affiliate motive on adolescents' moral development</b>
<b>239</b>	<b>Baqoyeva Maftuna Shuxratovna</b> <b>Peer influences on bullying among school students</b>
<b>242</b>	<b>Rustamov Shavkat Shuxratovich Nazarova Sevara Qaxramon qizi</b> <b>Oila tipidagi bolalar uyi tarbiyalanuvchilarining ijtimoiylashuvining psixologik xususiyatlari</b>
<b>244</b>	<b>Nasipova Shaxnoza Muxiddinovna</b> <b>Maktabgacha yoshdagi bolalar aqliy hissiy sohani rivojlantirishning ijtimoiy -</b>